



2021- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida jami **5228,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2943** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **266** taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurilish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **106,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurilish **113,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **30,8 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2020- yil 1- oktabr holatiga	2021- yil 1- oktabr holatiga	
Buxoro viloyati	2677	2943	109,9
Buxoro sh.	882	977	110,8
Kogon sh.	104	126	121,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	63	77	122,2
Buxoro	221	237	107,2
Vobkent	116	126	108,6
G'ijduvon	199	198	99,5
Kogon	129	147	114,0
Qorako'l	94	117	124,5
Qorovulbozor	42	54	128,6
Peshku	143	164	114,7

Romitan	218	234	107,3
Jondor	225	248	110,2
Shofirkon	241	238	98,8


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,2 %) va Jondor (8,4 %), Shofirkon (8,1 %), Buxoro (8,0) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1182,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **137,9 %** ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **5,0 %** punktga koʻpayib, **22,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




■ ulushi, % da ■ o'sish sur'ati, % da

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qorovulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **80,0 %** i yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **95,6 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **71,4 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **112,7 %**) va Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **55,3 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **8,3 m.**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oyida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **50,3 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,0 %** ni tashkil etgan holda **2627,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,2 %** ni tashkil etdi yoki **1419,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **105,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **284,9** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4943,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	5228,8	284,9	5,4	4943,9	94,6
Buxoro sh.	1174,6	134,9	11,5	1039,7	88,5
Kogon sh.	286,6	7,0	2,4	279,6	97,6
<i>tumanlar:</i>					
Olot	328,7	16,6	5,1	312,1	94,9
Buxoro	436,7	14,4	3,3	422,3	96,7
Vobkent	119,5	8,9	7,4	110,6	92,6
G'ijduvon	385,8	10,2	2,6	375,6	97,4
Kogon	329,7	6,5	2	323,2	98,0
Qorako'l	228,4	14,2	6,2	214,2	93,8
Qorovulbozor	273,7	4,7	1,7	269,0	98,3
Peshku	288,9	10,7	3,7	278,2	96,3
Romitan	719,6	25,4	3,5	694,2	96,5
Jondor	364	22,0	6	342,0	94,0
Shofirkon	292,6	9,4	3,2	283,2	96,8

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **55,3 %** i yoki **2890,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

55,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **607,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi

21,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1077,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **37,3 %** ni tashkil etdi.

37,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1205,8** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **41,7 %** ni tashkil etdi.

41,7 %




2021- yilning yanvar-sentabr oyida hududlar kesimidagi qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan kichik biznes hajmi (mlrd. so‘m)
Buxoro viloyati	5228,8	108,9	4046,5
Buxoro sh.	1174,6	101,8	1032,7
Kogon sh.	286,6	100,8	81,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	328,7	96,8	256,1
Buxoro	436,7	96,5	398,4
Vobkent	119,5	124,8	119,5
G‘ijduvon	385,8	93,5	384,7
Kogon	329,7	97,7	251,6
Qorako‘l	228,4	109,7	215,1
Qorovulbozor	273,7	92,4	54,6
Peshku	288,9	106,6	288,9
Romitan	719,6	200,7	321,2
Jondor	364,0	116,8	364,0
Shofirkon	292,6	104,7	277,7

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.





Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	5228,8	3648,7	739,4	840,7
Buxoro sh.	1174,6	742,2	269,7	162,7
Kogon sh.	286,6	174,5	10,5	101,6
<i>tumanlar</i>				
Olot	328,7	205,7	28,7	94,3
Buxoro	436,7	343,9	39	53,8
Vobkent	119,5	99,1	12,9	7,5
G'ijduvon	385,8	320,3	29,8	35,7
Kogon	329,7	245	39,2	45,5
Qorako'l	228,4	177,8	27	23,6
Qorovulbozor	273,7	47,5	100,6	125,6
Peshku	288,9	216,8	32,2	39,9
Romitan	719,6	621,2	48,1	50,3
Jondor	364,0	257,5	52,1	54,4
Shofirkon	292,6	197,2	49,6	45,8



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (1174,6 mlrd. so'm), Romitan (719,6 mlrd. so'm), G'ijduvon (385,8 mlrd. so'm) va Buxoro (436,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Tel.: (65) 223-81-99